

 **iScience® Poland**



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

Issue 9(43)

**Warsaw
2021**



**MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES
AND TRENDS**

ISSUE 9(43)

October 2021

Collection of Scientific Works

WARSAW, POLAND
Wydawnictwo Naukowe "iScience"
7-9 October 2021

ISBN 978-83-949403-3-1

MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: a collection scientific works of the International scientific conference (7-9 October, 2021) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. - 141 p.

Editorial board:

Bakhtiyor Amonov, Doctor of Political Sciences, Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies

Baxitjan Uzakbaevich Aytjanov, Doctor of Agricultural Sciences, Senior Scientific Researcher

Bugajewski K. A., doktor nauk medycznych, profesor nadzwyczajny Czarnomorski Państwowy Uniwersytet imienia Piotra Mohyły

Yesbosin Polatovich Sadi'kov, Doctor of Philosophy (PhD) Agriculture, Nukus branch Tashkent state agrarian university

Tahirjon Z. Sultanov, Doctor of Technical Sciences, docent

Shavkat J. Imomov, Doctor of Technical Sciences, professor

Sayipzhan Bakizhanovich Tilabaev, Candidate of Historical Sciences, Associate Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Marina Berdina, PhD

Hurshida Ustadjalilova, PhD

Dilnoza Kamalova, PhD (arch) Associate Professor, Samarkand State Institute of Architecture and Civil Engineering

Juraeva Sarvinoz Boboqulovna, Associate Professor of Philological Science, head of chair of culturology of Khujand State University named after academician B. Gafurov (Tajikistan)

Oleh Vodianyĭ, PhD

Languages of publication: українська, русский, english, polski, беларуская, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS". Which took place in Warsaw on 7-9 October, 2021.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-83-949403-3-1

© Sp. z o. o. "iScience", 2021

© Authors, 2021

SECTION: PHILOSOPHY

Ortiqov Oybek Rustamovich
Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası o'qituvchisi
(Buxoro, O'zbekiston)

MUHAMMAD ABU HOMID IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA ILM-MA'RIFAT VA AXLOQ MASALALARI

Annotasiya. Maqolada bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lgan, mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko'payib borayotgan bir paytda sharq mutafakkirlaridan Imom G'azzoliyning ilmiy merosi va asarlarida ilm-ma'rifat va axloq masalalarining uyg'unligiga bag'ishlangan. Shu bilan G'azzoliy asarlarida ruh kamoloti bosqichlari haqidagi fikrlari, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy an'analar asosida ta'lim va tarbiya berish, xalq farzandlarini yuksak salohiyatli, bilimli qilib tarbiyalashda, milliy mafkurani targ'ib etish, salohiyatli o'qituvchi sifaatida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'qilgan.

Kalit so'zlar: ilm-ma'rifat, axloq, mafkuraviy tahdid, renesans, g'azzol, zohidlik, islom ilohiyoti, tafakkur

Annotation. The article focuses on the harmony of science, enlightenment and ethics in the scientific heritage and works of Imam al-Ghazali, one of the thinkers of the East, at a time when ideological reforms and information attacks are on the rise.. At the same time, in Ghazali's works, his ideas about the stages of spiritual maturity, the satisfaction of spiritual needs, education and upbringing on the basis of national traditions, the upbringing of children of the people with high potential, knowledge, promotion of national ideology, a potential teacher as shown in the importance of parenting.

Keywords: science, morality, ideological threat, renaissance, ghazal, asceticism, Islamic theology, thinking.

Аннотации: Статья посвящена гармонии науки, просвещения и этики в научном наследии и творчестве Имама аль-Газали, одного из мыслителей Востока, в то время, когда нарастают идеологические реформы и информационные атаки. В то же время в произведениях Газали воплощены его представления об этапах духовной зрелости, удовлетворении духовных потребностей, образовании и воспитании на основе национальных традиций, воспитании детей людей с высоким потенциалом, знаниями, продвижении национального идеологии, было показано, что потенциальный учитель играет важную роль в воспитании как.

Ключевые слова: просвещение, мораль, идеологическая угроза, возрождение, газель, аскетизм, исламское богословие, мышление.

***Ilmga barcha narsangni bermaguningcha,
u senga hech narsangni bermaydi.***

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko'payib borayotgani, insonlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining barcha qatlamlari orasida, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish eng muhim vazifa hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasi, sport, intellektual salohiyatni oshirish, kitob o'qish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, yoshlarni ilmi, bilimli, dunyoqarashini keng bo'lishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi va boshqalar davlatimiz siyosatining asosiy masalalalari sifatida qaralayotganligi sir emas. Zero, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev aytib o'tganidek; "Yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish" [3] masalalari hozirgi kunning eng muhim strategik vazifalaridandir.

Bugungi ta'lim-tarbiyaning muhim starategik vazifalarini amalga oshirishda Sharq ta'lim-tarbiyasi va uning tarmoqlari bo'lgan fanlar o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etib, o'zaro uyg'un rivojlanish yo'llarini kashf etgan atoqli faylasuf Muhammad Abu Homid G'azzoliy asarlari "Yangi O'zbekiston yangicha dunyoqarash" shiori ostida O'zbekistonning uchinchi Renesansini yaratilishda, talaba-yoshlarda ilm-marifat, axloqiy fazilatlarining shakllanishi, rivojida munosib ahamiyatga ega.

G'azzoliyning ruh kamoloti bosqichlari haqida fikrlari, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy an'analar asosida ta'lim va tarbiya berish, xalq farzandlarini yuksak salohiyatli, bilimli qilib tarbiyalashda, milliy mafkurani targ'ib etish, salohiyatli o'qituvchi qilib yetishtirish muhimdir. Hozirgi kunda yosh avlodni dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy, mafkuraviy kurashlardan muntazam xabardor qilish, jahonda va yon atrofimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, ularda milliy manfaatlarimiz mohiyatini chuqur anglash va himoya qilishga qaratilgan ta'lim-tarbiyani pedagoglarimizni ilm-ma'rifat va ahloqiy rivojlanishida xizmat qiladi.

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy [1058 – Tus (Eron) – 1111] g'azzol (ip yigiruvchi) oilasida tug'ilgan, shu sababdan G'azzoliy taxallusini olgan, boshqalari esa G'azola (Tus yaqinidagi qishloq) da tug'ilgan, shuning uchun taxallusi G'azzoliy deb hisoblaydilar. Nishopur (Sharqiy Eron) va Bag'dodda ta'lim olgan. Bag'doddagi "Nizomiya" madrasasida islom huquqshunosligidan dars bergan so'ngra mudarrislikdan voz kechib, 11 yil zohidlikda hayot kechirgan, ilm bilan mashg'ul bo'lgan. 1105-yilda Nishopurga kelib, yana madrasada mudarrislik qildi, ammo bu hol uzoqqa cho'zilmadi. Tusga ko'chib borib 300 ga yaqin talabaga xususiy tarzda dars berdi.

Allomaning fiqhga doir "Bosit", "Vojiz", "Vosit", aqidaga doir "Qavoid al-Aqoid" ("Aqidalarning qoidalari"), "ar-Risolat al-qudsiya" ("Qudsiya risolasi"), mutasavviflar uchun "Ihya ulum ad-din" ("Diniy ilmlarni tiriltirish"), "Mukoshafat ul-qulub" ("Qalblar kashfiyoti") asarlari mashhur. Shuningdek, "Tahofut al-falasifa" ("Faylasuflarni rad etish"), "Kimyo-i-saodat"

("Saodat kimyosi"), "Maqosid al-falasifa" ("Faylasufflarning maqsadlari") asarlari olim ijodida muayyan o'rinni egallaydi. Bu asarlarda Forobiy, Ibn Sino, Abu Hayyon at Tavhidiy qarashlari bilan hamohangligini ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiy «Nasoyimul muhabbat min shamoyimul futuuvvat» («Mardlik epkinidan paydo bo'lgan sevgi shabodalari») asarida jahon falsafasining ustozlaridan biri Imom G'azzoliy haqida bunday deydi: «Hujjatul islom Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy Tusiy - kuniyati Abu Homiddur va laqabi Zayniddin (din ziynati). Tasavvufda intisobi (nasab silsilasi) shayx Abu Ali Faryumadiy'adur (Abu Ali Faryumadiy bir tarafdin shayx Abul-Qosim Gurgoniy va ikkinchi tarafdin shayx Abul-Hasan Xaraqoniy va u orqli shayx Abu Sa'id Abul-Xayr izdoshidur. Imom Muhammad holining ibtidosida Tusda va Nishopurda ulum (turli ilmlar) tahsiliga va takmiliga ishtig'ol ko'rguzdi. Andin so'ngra Nizomul-Mulk bila muloqot qildi». Boshqa ba'zi manbalarga ko'ra, imom Muhammad G'azzoliy, Umar Xayyom va Ismoiliya shia fidoiylarining boshlig'i Hasan Sabboh bir madrasada o'qiganlar [7, 31].

G'azzoliy o'z asarlarida islom ilohiyotini falsafiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. G'azzoliy xudoni aql orqali anglash mumkin emas, uni maxsus ruhiy, jismoniy harakatlar – sig'inish va ibodatlar orqali anglash mumkin deb hisobladi.. G'azzoliy fikricha, insonning Alloh buyurgan amallardan o'ziga maqbulini tanlab olishi o'z ixtiyoridadir, shu bois mazkur xatti-harakatlari oldindan belgilab qo'yilishiga qaramay ular uchun aynan insonning o'zi mas'uldir deb ta'kidlagan.

Shu o'rinda Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom: «Bir soatlik tafakkur bir yil ibodat qilgandan xayrliroq», deb marhamat qilganlarini alohida ta'kidlasak maqsadga muvofiq bo'lardi. Sir emaski, fikr nurlar kaliti va bilish uchun harakat asosidir. Shuningdek, fikr ilmlarni o'zida tutib qoladigan to'r, maqsad va tushuncha tuzog'idir [9, 31].

Bugungi yoshlarimiz ilmning fazl va martabasini bilsa ham, uning haqiqiligi, mahsuldorligi, shu bilan birga, inson qanday tafakkur qilishi, nima to'g'risida va nima uchun tafakkur qilishni, talab etilgan narsa ayni maqsad yoki maqsad emasligini ham to'g'ri anglashida xizmat qiladigan, tafakkur biror narsaga erishishga qaratilgan bo'lsa, bunga ham ilm bilan erishish lozimligini, yo bo'lmasa, dunyoviy bilimlarni bir-biriga bog'lash orqali yangi ilm hosil bo'lishini o'rgatuvchi, eng avval tafakkur fazilatini bayon qiluvchi aql bu ilm-ma'rifat ekanligi izohlaganligi ko'rishimiz mumkin.


Biroq shunday ilmiy-marifiy va ahloqiy ahamiyatga ega bo'lgan Imom Muhammad G'azzoliyning nomi va asarlari sobiq sho'ro tuzimi davrida ta'lim tarbiya fanlari tizimida o'qitilmay, ta'qiqlab kelindi. Mutaffakir va islom ilmida benihoyat katta hissa qo'shgan "Najoti islom" deb ulug'langan allomani tilga olingan taqdirda ham «yomon, reaksion faylasuf» deb qoralab kelishdi.

Ilm-marifat va ta'lim tarbiya haqida gapirar ekanmiz, talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlanishida G'azzoliy asarlaridagi ilm haqidaqi fikrlar juda katta ahamiyatga ega. Jumladan, alloma ozining «Ihyo uludum-din» asarida ilmga quyidagi ibratli so'zlar bilan ta'rif beradi: «Nafs (ruh) chavandozga, badan otga o'xshaydi. Chavandozning ko'rligi otning ko'rligidan zararlirroqdir. Yana: Aql qalbgga kirgan nurdir». (Ammo ba'zilarning dili aqlsizdir - M.M.) Arastu hakim «Axloqi kabir»da aytadi: «Aql dil go'zalligi bilan qo'shilsa fazilatga aylanadi. Aks holda aql fazilat emas» [7, 6].

Gazzoliy ta'lim-tarbiyaga ba'g'ishlangan asarlarida ilm, izlanish va intilshidan iborat, fikrning xos samarasi ilm bo'lib, undan boshqalar bahramand bo'ladi degan fikrlarni ilgari suradi. Agar qalbdagi ilmga qiziqish uyg'onsa, insonning dunyoqarashi va ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati o'zgaradi, u borlig'ini shu xayrli ishga baxsh etadi, o'zgaradi. Ilm barcha yaxshiliklar uchun asos va kalitdir. Shu bois tafakkur zikr va tazakkurdan afzal sanaladi. Chunki ilm bu yuksalish va taraqqiyot manbaidur. Demak, tafakkur hamma amallardan afzal turadi. Shuning uchun rivoyatlarda bir soatlik tafakkur bir yil ibodat qilishdan yaxshiroq, deyilgan. Boshqa bir rivoyatda esa tafakkur yomon amallarni yaxshi amallarga, xohish va hirsni zuhd va qanoatga ko'chiradi, deyilgan.

Imom G'azzoliy asarlari ilm-ma'rifat va axloqiy masalalar bilan birgalikda talabalarda milliy mafkura va mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida insonparvarlik, vatanparvarlik, axloqlik, bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirishda va rivojlanishda, mafkura targ'iboti samaradorligini oshirishda hamda ta'limning tarbiya bilan o'zaro yaxlitligi ta'minlashda, huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirishda xizmat qiladi.

Manbalarda qayd etilishicha, dunyodagi e'zoz-ehtiromlar va baland martaba, shon-shuhratni imom G'azzoliy o'ziga munosib ko'rmadi va hammasidan voz kechib, faqirlik va darveshlikni ixtiyor qilsada, tabiiy ilmlarga ham hurmat bilan qaraydi, tib ilmini ham chuqur tushuntiradi.



Shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida imom G'azzoliyning quyidagi fikrini tasdiqlab:

Ulum ichra o'qur ersang yuz tuman fasl,

Tamomi far'u din ilmi erur asl - degan baytni keltirgan, unga sharhlar bergan: Din ilmi - asl ildiz, boshqa ilm-fanlar esa uning shox-shabbalari, juz'lari, qismlaridir. Zero, din, axloq, ma'naviyat olimlari payg'ambar vorislaridir - deb, ta'kidlaydi.

Shunday ekan, diniy va dunyoviy ilmlarni subyekti va obyektini hisoblangan, bugungi kun islohotlar markazida bo'lgan shaxs va uning barkamol qiyofasida o'z ifodasini topib, har tomonlama kamol toptirish, ma'naviy - ahloqiy va intellektual salohiyatini jahon andozalariga mos tarzda yuksaltirish, ayniqsa, bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni har tomonlama

barkamol inson, yetuk kadr bo'lib yetishishlarini ta'minlash ishlari mamlakatda bosqichma – bosqich amalga oshirilmo'gi ta'lim-tarbiya borasida islohotlarda asos bo'lib xizmat qiladi.

«Hujjatul islom» unvoni bilan mashhur bo'lgan imom Muhammad G'azzoliyning asarlarida ilm-ma'rifat va ahloqiy ta'lim masalari yetuk shaxs hamda mafkurviy immunitetga ega bo'lgan yuksak darajadagi insonlar qilib tarbiyalash masalariga ham alohida e'tibor berilgan.



IX-XII asr Sharq uyg'onish davri mutafakkir allomalari Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino fikrlari bilan G'azzoliy fikrlari hamohang, keyingi davr G'arb olimlari Forobiy va Ibn Sinoga Abu Homid G'azzoliyini qarshi qo'ya boshladilar. Lekin bizning zamondoshlarimiz Forobiyning «Arou ahli madinatul fozila» («Fozillar shahri aholisining qarashlari» yoki qisqarog'i «Fozil odamlar shahri»), Ibn Sinoning «Risolai fil-ishq», «Hayy ibn Yaqzon» («Uyg'och o'g'li Tirik») va boshqa falsafiy asarlarini taqqoslab ko'rsalar, bu allomalarning qarashlari bir-birlariga zid emas, balki ohangdosh ekanligini tushunib yetadilar. Jumladan, Forobiy va Ibn Sino ham, G'azzoliy ham ruh kamoloti bosqichlari xaqida fikr yuritib, barcha insonlarga ma'naviy kamolot yo'llarini ko'rsatib o'tganlar.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, yoshlar mustahkam e'tiqod, yuksak dunyoqarash, ma'rifat asosida o'zligini namoyon etishida, mamlakatimiz aholisini qalbi va ongini egallashga qaratilgan tahdidlarga qarshi turishda va ogoh bo'lib yashamog'i uchun milliy ruhda ta'lim-tarbiyali bo'lishida, jaholatga qarshi ma'rifat asosida, milliy g'oyaning muhim tamoyillari bilan yog'rulgan, sog'lom e'tiqod, yuksak dunyoqarash hamda mafkuraviy immuniteti oziqlangan bo'lajak pedagoglarni tarbiyalashda, Imom G'azzoliyning asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.: O'zbekiston. 2018 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 y., - 592 b

4. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T.: "O'zbekiston" 2016 yil 56 b
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 son Farmoni
7. Abu Homid G'azzoliy "Kimyoi-sodat (ruh haqiqati)". T.: "Adolat", 2005-yil., 233-bet.
8. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy "Ihyou ulumid-Din" (Din ilmlarini jonlantirish) T.: "Movarounnahr" nashriyoti, T.: 2007-yil. 144-bet.
9. Abu Homid G'azzoliy "Ihyou ulumid-din" Tafakkur kitobi. T.: "Islom universiteti" nashriyoti, T.: 2007-yil. 31-bet.
10. Quronov M. "Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya" – T.: Fan. 1995y. 118b.